

UO'K(UDC, УДК): 82-311.2

“IJODKOR SHAXS” OBRAZINI YARATISHDA JEK LONDON VA ABDULLA QAHHOR MAHORATI: UNIVERSALLIK VA O‘ZIGA XOSLIK⁶

Karimov Ulug‘bek Nusratovich

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrası dotsenti v.b.

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Orcid ID:0009-0006-0868-8358

E-mail: u.n.karimov@gmail.com

Karimova Munira Axmadjanovna

Xalqaro Nordik Universiteti

“Chet tillari” kafedrası katta o‘qituvchisi

Orcid ID: 0009-0008-5690-5964

E-mail: m.a.karimova2807@gmail.com

ANNOTATSIYA

KALIT SO‘ZLAR

Maqolada ijodkor shaxs obrazini yaratishda ikki turli millatning o‘tkir qalam sohiblari Abdulla Qahhor hamda Jek Londonning yozuvchilik mahorati keng muhokama qilindi. Bunda Abdulla Qahhorning “Sarob” va Jek Londonning “Martin Iden” romanlari obyekt qilib olindi.

Maqolaning asosiy maqsad va vazifasi, asarlari obyekt qilib olingan yozuvchilar Abdulla Qahhor va Jek Londonning ijodkor shaxs, ya’ni yozuvchi obrazini gavdalandirishdagi umumiy o‘xshashliklari, mutanosibliklarini tahlil etish bilan bir qatorda, adiblar tabiatidan, tajribasidan obrazlarga ko‘chirilgan o‘ziga xoslik, individual mahorat chizgilarini o‘rganish, tahlil qilishdan iborat. Har ikki asar bosh qahramonlari Saidiy va Martin yozuvchi obrazida gavdalandirilgan bo‘lib, unda adiblarning obraz yaratishdagi umumiylikni ko‘rish mumkin, ya’ni mualliflar bosh qahramonlarini yolg‘izlikda, ochlikda, og‘ir turmush sharoitlarida haqiqiy insoniylik sinovidan o‘tkazadi. Xudbinona intilishlar shaxsni qanday fojiaiy ahvolga olib borishi mumkinligini real tasvirlarda ko‘rsatadi. Shuningdek, bu xarakterlar yozuvchilarning bosib o‘tgan hayot yo‘li, tajribalari ya’ni biografik tamoyillari o‘laroq individual ruhiyat bilan boyitilgan.

Tahlil so‘ngida ayon bo‘ladiki, individual tamoyillarga qaramay, yozuvchilarimiz asarlarida universal mavzular va tuyg‘ular: sevgi, insoniy munosabatlar, shaxsiy o‘shish, orzularga intilish va fidoyilik, jamiyatning ijobiy, salbiy tusi kabi mavzular yetakchi. Ushbu mavzular turli millatdagi o‘quvchilar bilan rezonanslashadi va bu asarni global auditoriya uchun ochiq va qulay qiladi.

Obraz,
avtobiografik tamoyil,
ijodkor shaxs, badiiy
to‘qima, universallik,
“Sarob” romani, “Martin
Iden” romani, bosh
qahramon, tipologik
aloqadorlik.

Received: March 1, 2025

Accepted: April 14, 2025

Available online: May 2, 2025

⁶ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Karimov U., Karimova M. “Ijodkor shaxs” obrazini yaratishda Jek London va Abdulla Qahhor mahorati: universallik va o‘ziga xoslik.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 68-86.

THE MASTERY OF JACK LONDON AND A. QAHHOR IN CREATING THE IMAGE OF THE “CREATIVE PERSON”: UNIVERSALITY AND UNIQUENESS

Karimov Ulug‘bek Nusratovich

Associate Professor of the Department of
Practical Disciplines in English Language No. 3
Uzbekistan University of World Languages
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Orcid ID:0009-0006-0868-8358

E-mail: u.n.karimov@gmail.com

Munira Karimova Akhmadjanovna

Senior Lecturer at the
“Foreign Languages” Department
International Nordic University
E-mail: m.a.karimova2807@gmail.com
Orcid ID: 0009000856905964

ABSTRACT

The article discusses the writing skills of Abdulla Qahhor and Jack London, talented authors from two different nations, in creating the image of a creative individual. Abdulla Qahhor’s novel “Sarob” (Mirage) and Jack London’s novel “Martin Eden” were chosen as the objects of study.

The main goal and objectives of the article are to analyze the general similarities and proportions in the portrayal of a creative person, specifically a writer, by Abdulla Qahhor and Jack London, whose works are the focus of the study. Additionally, it aims to examine and analyze the unique features and individual skills transferred from the authors’ natures and experiences to their characters. The protagonists of both works, Saidiy and Martin, are portrayed as writers, revealing commonalities in the authors’ character creation. The authors test their main characters for true humanity in conditions of solitude, hunger, and difficult living circumstances. They realistically depict how selfish aspirations can lead a person to tragic situations. Furthermore, these characters are imbued with individual psychology, reflecting the life paths, experiences, and biographical principles of the writers.

The analysis ultimately reveals that, despite individual approaches, universal themes and feelings predominate in the works of these writers: love, human relationships, personal growth, the pursuit of dreams and dedication, and the positive and negative aspects of society. These themes resonate with readers of different nationalities, making the works accessible and appealing to a global audience.

KEY WORDS

Image,
autobiographical
principle, creative person
(writer), artistic texture,
universality, novel
“Sarob” (Mirage), novel
“Martin Eden”,
protagonist, typological
connection.

МАСТЕРСТВО ДЖЕКА ЛОНДОНА И А. КАХХАРА В СОЗДАНИИ ОБРАЗА «ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ»: УНИВЕРСАЛЬНОСТЬ И УНИКАЛЬНОСТЬ

Каримов Улугбек Нусратович

Доцент кафедры практических дисциплин английского языка №3

Университета мировых языков Узбекистана,

Кандидат философских наук (PhD) по филологии

Orcid ID: 0009-0006-0868-8358

E-mail: u.n.karimov@gmail.com

Мунира Каримова Ахмаджановна

Старший преподаватель кафедры “Иностранные языки”

Международного Нордики Университета

E-mail: m.a.karimova2807@gmail.com

OrcidID: 0009000856905964

АННОТАЦИЯ

В статье подробно рассматривается писательское мастерство Абдуллы Каххара и Джека Лондона, талантливых писателей двух разных национальностей, в создании образа творческой личности. В качестве объектов исследования были выбраны романы Абдуллы Каххара “Сараб” (Мираж) и Джека Лондона “Мартин Иден.”

Основная цель и задача статьи - проанализировать общие черты и соотношения в воплощении образа творческой личности, а именно писателя, в произведениях Абдуллы Каххара и Джека Лондона, а также изучить и проанализировать уникальность и индивидуальные черты мастерства, перенесенные из натуры и опыта писателей в созданные ими образы. Главные герои обоих произведений, Саиди и Мартин, представлены в образе писателя, где можно увидеть общность в создании образов авторами: они подвергают своих главных героев испытанию на истинную человечность в одиночестве, голоде, тяжелых жизненных условиях. В реалистичных картинах показано, к какому трагическому состоянию могут привести личность эгоистические стремления. Кроме того, эти характеры обогащены индивидуальной психологией, отражающей жизненный путь писателей, их опыт, то есть биографические принципы.

В заключение анализа становится очевидным, что, несмотря на индивидуальные особенности, в произведениях наших писателей преобладают универсальные темы и чувства: любовь, человеческие отношения, личностный рост, стремление к мечтам и самопожертвование, положительные и отрицательные аспекты общества. Эти темы находят отклик у читателей разных национальностей, делая произведения доступными и привлекательными для мировой аудитории.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Образ, автобиографический принцип, творческая личность, художественная ткань, универсальность, роман «Сараб», роман «Мартин Иден», главный герой, типологическая взаимосвязь.

KIRISH

Yozuvchining badiiy obraz yaratish mahorati masalalari adabiyotshunoslikda atroflicha o'rganilgan. Jumladan, H.O'.Karimov "Badiiy adabiyotda obraz va obrazlilik" nomli monografiyasi, shuningdek, "Tarixiy shaxs va badiiy obraz" nomzodlik dissertatsiyasida lug'atshunoslikda obrazning yuzaga kelishi, ma'noviyliigi, ta'rif va tasniflari, hamda adabiyotda badiiy obraz va obrazlilikning paydo bo'lishi haqida to'xtalgan. F. Yo. Jo'rayeva "Tipologik obrazlarning qiyosiy tahlili (L. Tolstoy; H. To'xtaboyev asarlarida)" nomzodlik dissertatsiyasida qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim masalalari – badiiy asar qahramonlarining tipologik tahlili muammolari, hamda adabiy ta'sir shakllarining rivojlanish qonuniyatlari tekshiriladi, Hojimurod va Namoz obrazlari ilk bor qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganilganki, bu adabiyotda obraz yaratilish mahoratini o'rganish, qiyoslash, tahlil etish bugungi kun tadqiqotining asosiy predmetlaridan biri bo'lib kelayotganligini ko'rsatadi. O.I.Duysenbayev "O'tkir Xoshimov ijodida ona obrazi" nomzodlik dissertatsiyasida adib ijodida ona obrazining badiiy evrilishi, tadriji va takomili, shunga aloqador ravishda yozuvchi mahorati, ijodining milliy o'ziga xosligi jihatidan o'rgangan. A. Xatamova "Adabiyotshunoslik terminlarida identifikatsiya va muqobilik muammolari (ruscha-o'zbekcha terminologiyasi asosida)" nomzodlik dissertatsiyasi bobining "Obraz va obrazlilik terminlari va ularning ilmiy-adabiy hayotdagi o'rni" mavzusidagi ikkinchi faslida badiiy asarning asosi hisoblangan obraz va obrazlilik terminlariga doir qarashlar tahlil qilingan bo'lib, unda obraz terminini izohlashda uning nafaqat badiiy adabiyotda qo'llanilishi, balki fanning boshqa gumanitar sohalaridagi qarashlarni ham hisobga olib ish yuritish lozim ekanligi, biroq obraz tushunchasining badiiy adabiyotdagi o'rni san'atning boshqa turlariga nisbatan izchilroq ishlanganligini nazarda tutgan holda, unga ta'rif berilganda obrazning konkret va umumlashma xarakteridan kelib chiqib ish yuritish maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlanadi.

Yana J. Rahimovning "Yozuvchi obrazi", E. Umarovning "Obrazlar dunyosida", M.Hakimovning "Shakl, hayotiylik va obrazlik", A. Rasulovning "Badiiy asar qanotlari. Obraz va obrazlilik uslubi", N. Xolliyevning "badiiy obrazlar

sistemi”, M. Xavaydarovning “Структура образа героя в романе XX века” kabi bir qator qo‘l yozmalarda obraz tushunchasi, mohiyati, yaratilish mahoratining o‘ziga xosligi, hamda strukturaviy ahamiyati ochib berilgan va tahlil etilgan. Shuningdek, bu borada I.Sultonov, H. Yoqubov, M.Qo‘shjonov, O. Sharafiddinov, S. Mamajonov, N. Karimov, S. Mirvaliyev, B.Nazarov, U.Normatov, D.Quronov va boshqalar qator tadqiqotlar olib borganlar.

Keltirilgan ilmiy ishlarning aksariyat qismidagina obraz yaratilish mahorati qiyosiy jihatdan tadqiq etilganligi, bu borada yana ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilishi ustuvor vazifa ekanligini ko‘rsatadi.

Yozuvchi ijodkor obrazini yaratishda qator tamoyillar, xususan, avtobiografik tamoyillarga asoslanishi: o‘z hayoti asosiy aspektlarini: shaxsiy xarakteristikalarini, mavjudiyatini, o‘zining ijodiy uslubini va qobiliyatlarini ifodalashi obrazni jonli, ham o‘ziga xos, shuningdek, xalq tilida umri boqiy bo‘lishiga xizmat qiladi. Binobarin, ijodkorning hayoti va tajribalari dunyodagi boshqa insonlarga ham qiziqarli va o‘ng‘ay bo‘lishi uchun xalqchil va umumiy haqiqatlar asnosidagi ma’lumotlar keltirilishi uning tarixiy, ijtimoiy, madaniy va shaxsiy kontekstlarini tushuntirishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot uchun asarlari tanlangan buyuk adiblar Abdulla Qahhor va Jek Londonning deyarli barcha ijod namunalari ana shunday butun olam tiliga tushuvchi, kitobxonini, u qaysi millat yo elat vakili bo‘lsin, o‘ziga bog‘lab qo‘yuvchi, eng muhimi, barcha barchaning shuuriga yetib boruvchi kuchga egadir. Albatta, bunda har ikki ijodkorning hayot yo‘li, boshidan o‘tkazganlari, hayotiy tajribalari yetakchi omil. Chunonchi, badiiy asarda ijodkor shaxsga doir biografik omillar qahramonlarining ismida yoki voqealarning joyi va vaqtida, voqeaning aynan o‘zining ifodasida ham sezilib turadi.

Ijodkor shaxs biografiyasi hayotiy voqealar yig‘indisi bo‘libgina qolmay, balki ijodkor qalbida kechgan tuyg‘ular manbai sifatida ham qaraladi. Shu bois adib ijodi o‘rganilganda uning tarjimayi holi ham nazardan chetda qoldirilmaydi. Badiiy asarning yaratilishiga turtki bo‘lgan hayotiy voqealar va kechinmalarni o‘rganish esa o‘sha asar zahirida yotgan yashirin ma’no qatlamlarini ochishga yordam beradi.

Ko‘rinadiki, ijodkor shaxs tushunchasi bevosita muallif tarjimai holi bilan ham, zamon va davr “tarjimai holi”, ya’ni yozuvchi yashagan muhit, davr tafsilotlari bilan ham bog‘liq (Umarova M., 2021, 35). Adabiy tanqidchilik tarixidan ma’lumki, yozuvchi o‘zi bosib o‘tgan hayot so‘qmoqlarini, o‘z kechinmalarini, yaqinlari hayoti va qismatidan ta’sirlanib asar yaratsagina, chinakam badiiy san’at asarining kashfiyotchisi sifatida ta’riflanadi. Badiiy ijodda “to‘qima” qanchalik muhim rol o‘ynamasin, lekin o‘sha “to‘qima”ga zamin bo‘luvchi real hayot, qismat, tuyg‘ular, romantik kechinmalar, ijtimoiy-siyosiy-maishiy muhit go‘zal san’at asarini undiruvchi serhosil, unumdor zamin vazifasini o‘taydi (Qo‘chqorova M., 2020, 8).

METODALOGIYA

“Martin Iden” romani biografik xususiyatga egaligi bois Jek London ijodkor obrazini yaratishda o‘z tabiati va tajribalaridan kelib chiqqanligi kuzatiladi. Abdulla Qahhor ham ijodkor va ijod ruhiyatini berishda, shubhasiz, o‘zining ijodkor sifatidagi tabiati va faoliyatiga suyangan. Aynan shu omil, ya’ni Martin va Saidiy obrazlariga adiblar avtobiografik ruhiyatlarining singdirilishi asarlardagi mutanosiblikni ifodalaydi.

Qolaversa, ikki roman o‘rtasida, xususan, Martin va Saidiy, Ruf va Munisxon obrazlari o‘rtasida, shuningdek, roman badiiy kompozitsiyasida o‘xshash parallellar kuzatiladi. Masalan, har ikki asar bosh qahramonlarining o‘smirlik, ya’ni 21-26 yoshlar, bu davrning o‘ziga xos psixikasi: ayni yangi g‘oyalar tug‘yon uruvchi, maqsadni muqim qo‘yuvchi va unga tomon jidd-u jahd qiluvchi palla, shu bilan birga asarlarning intihosi kabi, hayotdan kutganini olmagach kuchli ruhiy, ham emotsional tushkunlikka tushish maylining yuqoriligi davri tanlangan. Asardagi voqeliklar adiblarimiz mana shu yosh pallasida boshidan o‘tkazganlari asosida bunyod etilganligini guvohi bo‘lamiz.

Quyidagi manba fikrimizni tasdiqlaydi: “Abdulla Qahhor biografiyasidan kelib chiqilsa, saranjomlik aniqroq ko‘rinadi. “O‘tmishdan ertaklar” qissasida Abdulla Qahhorning bolaligi, qarindoshlari, tengqurlari, birga o‘qigan do‘stlari obrazi berilgan. “Sarob”da Abdulla Qahhorning talabalik yillaridagi hayoti,

intilishlari Saidiy xarakteriga “yedirib” yuborilgan. Yozuvchi hayotining 20-26 yoshlardagi pallasi – universitetda o‘qishi, izlanishlari, do‘st-kursdoshlar bilan muloqotlar, “Botir gapchilar” haqidagi ba’zi ma’lumotlar “Sarob”da tasvirlangan... Ko‘rinadiki, “Sarob” tabiiy holda “Qo‘shchinor chiroqlari”ga yo‘l ochdi”. (Normatov U., 2008,74)

Jek London hayot va ijodini o‘rganar ekanmiz, Martin obrazida aynan o‘zining hayot izlarini ko‘ramiz. Roman qahramoni Martin kambag‘al yigit, dengizchi bo‘lib tirikchilik qiladi. Biroq, o‘zini yaxshilash va boyib ketish istagida Martin o‘qish va yozishni boshlaydi. Bu jarayonda u o‘zini rivojlantiradi va yozuvchi sifatida muvaffaqiyat qozonadi. Biroq, boylik va muvaffaqiyatga erishish uning uchun boshi berk ko‘chaga aylanadi.

Martin ijtimoiy sinfiy tafovutlar va kamsitishlarga qarshi kurashib, hayotning mazmuni va baxtini topish uchun harakat qiladi. Romanda ijtimoiy sinflar kurashi haqida so‘z borar ekan, u shaxsiy muvaffaqiyat va baxtning ma’nosini ham shubha ostiga oladi. Martin dastavval boylik va muvaffaqiyat orqali baxtga erishishni maqsad qiladi. Biroq, muvaffaqiyatli va boy bo‘lish bizning qahramonimizni yolg‘iz va baxtsiz qiladi. Shu boisdan ham roman shaxsiy baxtga nafaqat moddiy boylik, balki qalban sokinlik va in‘om etilgani hayotdan qoniqish bilan ham erishish mumkinligi haqida xabar beradi.

O‘zbek adabiyotshunosligida yaratilgan eng ko‘p bahslarga sabab bo‘lgan asarlardan biri “Sarob” romanida bosh qahramon Saidiy ham xuddi Martindek muhabbatiga erishish maqsadida o‘z oldiga buyuk rejalar qo‘ygan, bu yo‘l mashaqqatlarini yengib o‘tishga bel bog‘lagan, biroq noto‘g‘ri qo‘yilgan qadam, haq-nohaqni vaqtida anglab yetmaslik, xudbinlik yo‘lini tanlash qahramonimizni boshi berk ko‘chaga tushib qolishi, oxir oqibat tanazzulga yuz tutishi tasvirlangan. Shuningdek, “Sarob”da shaxsning yemirilish fojiasi juda mahorat bilan, bosqichma-bosqich dinamik tarzda ochib berilgan. Bundan tashqari, jamiyatda avj olgan poraxo‘rlik, ichkilikbozlik, ko‘z bo‘yamachilik, aqlsizlik, fikrsizlik, sotqinlik, xiyonat va razolat kabi ko‘pdan-ko‘p salbiy illatlar mahorat bilan fosh etilgan.

NATIJALAR

Jek Londonning “Martin Iden” va Abdulla Qahhorning “Sarob” romanlari oʻrtasida muayyan oʻxshashliklar borligi adabiyotshunoslikda aytilgan. (Hamraqulova H., 2004, 17) Adibning oʻzi ham adabiy-tanqidiy maqolalari, chiqishlarida bir necha oʻrinlarda Jek London ijodiga, “Martin Iden” romaniga alohida diqqat qaratib oʻtadi. Bu fakt va maʼlumotlar Abdulla Qahhorning Jek London ijodini, uning “Martin Iden” romanini yaxshi bilganligini koʻrsatadiki, bundan oʻzbek adibi amerikalik yozuvchi yaratgan romandan adabiy taʼsirlangan, deyishga imkon beradi. (Qobilova N., 2018,14)

Nazariyaga yuzlansak, ayrim hollarda oʻxshashliklar bir-biridan butunlay bexabar holda adabiyotlar oʻrtasida ham uchrashi mumkin. Bunday oʻxshashlik tipologik aloqadorlik deyiladi. Bir-biridan oʻrganib, oʻzaro taʼsir natijasida paydo boʻlgan oʻxshashlikka kontakt aloqa deyiladi. Jahon madaniyati xazinasiga yirik hissa qoʻshgan koʻplab asarlar borki, ularni kontakt aloqa namunalari, bir-biri taʼsiri ostida yaratilgan deb ayta olamiz.

Xususan, oʻrganayotgan obyektlarimiz buning yorqin namunasidir. Har ikki ijodkor asarlari mazmun-mohiyatan mutanosib boʻlib, oʻzlari yashab turgan davr qiyofasini eng sof tuygʻu muhabbat tuygʻusi asosida, uning shijoati ostida gavdalantirgan. Biroq, qanchalar sof va qudratli boʻlmasin bu ilohiy tuygʻudan davr muhiti taʼsirida Ruf va Munisxon osongina voz kechishi tasvirlanadi.

Shuningdek, muhabbat sahnasini yaratish orqali bir-biriga zid qatlam (boy va qashshoq) vakillari tenglik va tafovutlari mohirona gavdalantiriladiki, bu bilan oʻtkir qalam sohiblari oʻzlari yashab turgan davr “erkatoy zodagonlar”iga haqiqatda mukammal insonlardir deya sigʻinish ayni xato ekanligini, ular asli boʻshliq va chirkinlikdan iborat ekanligini shartta aytadilar.

Misol uchun Martin va Saidiyning mehmonga borganlik sahnalarini olaylik: “Martin kelganda Morzlarning uyi mehmonlar bilan gavjum edi... shunday qilib, mehmonxonada Rufning xolavachchalari – Doroti bilan Florensdan boshqa yana ikkita dorilfunun muallimi: biri - lotinshunos, ikkinchisi – ingliz filologiyasi mutaxassisi; Rufning maktabdosh oʻrtogʻi, yaqinda Fillipindan kelgan yoshgina

qo'shin zobiti; San-Fransiskodagi kredit jamiyatning boshlig'i Josef Perkinsning shaxsiy kotibi Melvill familiyali yigitcha; nihoyat, Stenford dorilfununida ta'lim olib chiqib, banklardan birida bosh buxgalter lavozimida ishlayotgan Nil va Qo'shma klublarning a'zosi, saylov kampaniyalari vaqtida respublika partiyasining doimiy va'zxon o'ttiz besh yoshlardagi bashang yigit – har jihatdan istiqboli porloq Charlz Xepgudlar bor edi...

Martin avvaliga o'zini juda o'ng'aysiz his qila boshladi. U ilgari hech qachon shuncha ko'p atoqli kishilar bilan birga bo'lgan emas edi. Ammo keyin Martin xulosa chiqaradi: u odamlarning aksariyati qip-qizil nodon odamlar, qolgan to'qson foizi chidab bo'lmaydigan darajada ruhsiz odamlar edi. Shuningdek, muallifning xulosasi mazmunni yanada bo'rttiradi: Morzlarnikida bo'lgan bu o'tirish Martinning dilida juda g'alati va bir-biriga zid hislar tug'dirdi. Qilmoqchi bo'lgan ishidan ko'ngli sovidi, o'zi yuksak saviyali deb o'ylagan odamlardan hafsalasi pir bo'ldi, vaholanki, Martin ularning saviyalariga yetishishni orzu qilardi" (Jek London, 1968, 290; 304).

Bunday manzara "Sarob"da quyidagicha keltiriladi: "Saidiy ertasiga Munisxon aytgan vaqtda kelib juda noqulay holatda qoldi. U eshikni ochishga ochib, kirishini ham bilmadi, qaytishini ham: ichkarida odam ko'p edi. Ro'parada oyog'ini chalmashtirib o'tirgan Salimxon, yalqovlik bilan suzib yurgan tamaki tutuni ichidan o'tib kelib, so'rashdi va ichkariga tortdi.

Saidiy tanish ammo bilish bo'lmagan kishilarga odob bilan salom berib poygahdagi kursiga o'tirdi. Deraza ostida xuddi yomon bir hididan nafratlanganday, og'iz-burnini qo'li bilan qoplab o'tirgan yoshgina, chiroyli yigit - tuman partiya komiteti tashviqot-targ'ibot shu'basining mudiri uning salomiga boshi bilan javob berdi. Divanda o'tirganlardan biri – viloyat ijrokomining sekretari, biri – viloyat suv xo'jaligi idorasining boshlig'i edi...Bularning hammasi boshiga zo'r musibat tushgan va bunga qarshi ko'p ilojlar topib, qaysi biri umidli iloj ekanini bilolmay o'ylanib o'tirgan kishilarga o'xshar edi. (Qahhor A., 1995, 67); "Majlis tamom bo'lib, kishilar bir-biriga so'z ma'qullab, bir-biri bilan urishib, tarqala boshladi...Abbosxon presidium stoli yoniga o'tirdi. Uni yaxshi kiyingan,

allanarsasiga magʻrur boʻlgan bir necha kishi oʻrab oldi... Abbosxon goʻyo koʻp mol bilan kelgan va koʻngliga yoqadigan kishilarga arzonroq narxda mol bera oladigan katta savdogar, uning atrofini oʻrab “aka-aka” deganlar esa eski, yangi doʻkondorlar. Bular mumkin qadar shu odamga yoqishga, undan arzonroq mol olib, koʻproq foyda qilishga urinadi. Abbosxon nima desa toʻgʻri, bir gapni aytib kulsa, yoki biron narsani mazax qilsa, gapida hech kuladigan joyi boʻlmasa ham atrofdagilar kular va har qaysisi qattiqroq kulishga tirishar edi. Saidiy bu yerga kelganiga pushaymon boʻlib chiqib ketdi” (Qahhor A., 1995, 21). Martin va Saidiy oʻylari, holati, ichki kechinmalari, taassurotlari bir xil ifodalangan.

Yoxud ijodkor siymosi gavdalantirilishida ham adiblarda umumiylikni koʻrish mumkin, yaʼni mualliflar bosh qahramonlarini yolgʻizlikda, ochlikda, ogʻir turmush sharoitlarida haqiqiy insoniylik sinovidan oʻtkazadi, xudbinona intilishlar shaxsni qanday fojiaviy ahvolga olib borishi mumkinligini real tasvirlarda koʻrsatadi. Martin va Saidiy dastavval ogʻir turmush sharoitiga muhtalo etiladi: “U hali goʻsht yeydigan darajada boy emas edi, shuning uchun toʻ orziqib kutilgan chek yetib kelguncha, bir amallab ochin – toʻqin kun kechirib yurdi” (Jek London, 1968, 244); Ruf Martinning ozib, bir holatda boʻlib qolgan yuziga tikilganda ham, uning och qolgani hayoliga kelmasdi... Martin bir kuni uyidan palto kiyib chiqib ketib, kun sovuq va yomgʻir yogʻib turgan boʻlishiga qaramay, paltosiz qaytib kelganini koʻrgan edi. Shundan keyin Martinning yuzi bir necha vaqtgacha toʻlishib, koʻzlaridagi ochlik uchqunlari soʻngandi (Jek London, 1968, 260); “Beshinchi hafta, uning ketidan oltinchi hafta oʻtdi. Martin esa hamon mashina singari ishlardi, faqat qalbining eng teran yeridagina allaqanday kichkinagina uchqun bor ediki, u har hafta oxirida velosipedda bir yuz qirq mil keladigan masofani bosib oʻtishga majbur etardi. Lekin bu dam olish emas edi; Biroq keyingi shanba kuni u qaqshagan aʼzoyi badanidagi horgʻinlikni undan ham kuchliroq horgʻinlik bilan bartaraf qilish uchun yana velosipedda yetmish mil yoʻl bosdi (Jek London, 198, 198).

“Sarob”ga nazar solsak: “U tarbiya va kengash berishga arziydiganlar qatoriga kiraman, deb oʻzini qiynab qoʻydi, yoz boʻyi hech qayerda ishlamadi, bisotidagi puli tugashdan tashqari, baʼzi kiyimlaridan tortib Ehsondan qolgan parqu

yostiqqacha bozorga chiqdi... shu kunlarda uning qora nondan boshqa narsaga kuchi yetmay qoldi, juda ozib ketdi, uch-to'rt soatdan ortiq ishlashga madori qolmadi" (Qahhor A., 1995, 31). Biroq o'zaro ta'sir, aloqada bo'lsada, bu narsa asarlarning qo'shib, qorishib ketishini tasdiqlamaydi, ya'ni bu degani Abdulla Qahhor to'g'ridan-to'g'ri Jek Londonning taqlidchisi bo'lib qoldi, degani emas. Adabiyotning millati bo'lmaydi, milliy xususiyati bo'ladi deyilganidek, "Sarob" romani o'zbek milliy tarixidan ajratib yozilmagani, lovullab otilib turgan vulqonday murakkab hayot, tinib ulgurmagan voqelik tasvirlangan (Normatov U., 2008, 61) asar ekanligi ayon haqiqat. Xususan, O'zbekiston xalq yozuvchisi P.Qodirovning quyidagi mulohazasi ayni o'rinlidir: "Saidiy munosabati bilan Grigoriy Melexov yoki Martin Iden kabi jahonga mashhur adabiy obrazlarni juda shartli ravishda eslash mumkin. Chunki tarixiy davrlarda ham, insoniy xarakterlarda ham katta farqlar bor. Ularning fojiaiy taqdirlarida ham o'xshashlik yo'q emas, lekin Saidiyga nisbatan Martin Iden yoki Grigoriy Melexovdagi ulkan miqyos, kurashchan ruh, katta jasorat, favqulodda faollik xiyla boshqacha. Aslida shunday bo'lishi kerak, chunki, klassiklar an'anasiga ergashish quruq taqliddan yuqori turadigan ijodiy mustaqillikni talab qiladi. Bir narsani ta'kidlash kerakki, "Sarob" kitobiylikdan uzoq turadigan asardir. Romanning yozilishi uchun hayot va voqelik hal qiluvchi asos bo'lib xizmat qilganini Abdulla Qahhor o'z tarjimai holida maxsus ko'rsatib o'tadi. Saidiy, Munisxon, Murodxo'ja domla va boshqa tipdagi personajlarni yozuvchi hayotda ko'rgan. Oldin o'tgan adiblarning tajribasi esa shunday odamlar to'g'risida ham asar yozish mumkinligiga uni ishontirgan va realistik metodning yo'llarini ko'rsatgan. (Normatov U., 2007, 100)

Xususiylkdan umumiylikka va umumiylikdan xususiylk sari uzluksiz davom etuvchi umum olam rivojlanish dialektikasi jahon miqyosidagi madaniy – adabiy jarayonda ham serqirra, rang – barang tusda kechadi. Millatlararo adabiyotlarga xos mushtaraklik va o'ziga xoslik masalasi ham xuddi shunday qirradorlik kasb etadi.(Jo'rayeva F., 2000, 93)

Tadqiqiy fikrlar majmuasini umumiylikdan xususiylkka sari davom etkazish har bir roman mohiyatini to'laroq anglash imkoniyatini yaratadi. Adiblarimiz

asarlari, ularni yaratilish mahoratlaridagi o'ziga xoslikka o'rin berar ekanmiz, qator individualliklarga guvoh bo'lamiz.

Buni, avvalo, asar bosh, ijodkor, qahramonlari qurilishida uchratamiz. Martin va Saidiy siymosini quyidagicha tahlillash mumkin: Martin qoloqlikdan yuksaklikka qadar aniq maqsadni qo'ygan va buning ro'yosi yo'lida har qanday qiyinchiliklar, ochlik-u uqubatlarga bardoshli, ruhini eng og'ir pallalarda ham sindirmaydigan, rivojlanishda sobitqadam, kitob va qalamni doimiy hamrohiga aylantirgan, butkul tushkunliklardan o'zini olib chiqishga kuch topa oladigan, ruhiyati baland, bir so'z bilan motivatsion xarakterdagi obraz deyish adolatli. Romanning yana bir jihati shundaki, unda shaxs erkinligi va muvaffaqiyatiga urg'u berilgan. Ya'ni inson aqlini ham vujudini ham holdan toydiruvchi og'ir mehnatdan o'zga hech nima to'g'risida o'ylay olmaslik darajada tafakkuriga, ham vaqtiga kimdir xo'jayin bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, o'zgalar uchun molday ishlashga (Jek London, 1968, 188-194) barham berish zarurligi, erki uchun kurashishi, aks holda, erksizlik natijasida insondagi jamiki oliy hislar toptalishi, izzat-nafsi xo'rlanishi, hayotiy kuchning havoga sarf bo'lavergandan zaiflashishi, oxir oqibat orzu-umidlarsiz o'lik qalb sohibiga, ish hayvoniga aylanib qolishi asarda yorqin aks ettiriladi. Shu bilan birga ozodlik nashidasi, inson o'zi ustidan, o'zi sarf qilayotgan umr, vaqt ustidan o'zi hukmron bo'lgandagina oliy maqsadlar qo'ya olishi va unga tomon dadil qadam tashlay olishi muvaffaqiyatning kaliti ekanligi uqtiriladi. Aslida bu "Sarob" uchun ham o'rinli, negaki, Saidiy Murodxo'jaga qullik qilib o'z vaqti, baxti, orzu-umidlari, maqsadlari, halovati, butun umrini boy berdi, ichkilikka qullik qilib sog'ligini, zehn-u zakovatini, husni-xulqini yo'qotdi. Ha, garchi qahramon tragik yakun bilan o'z umriga nuqta qo'ygan bo'lsada, biz Martinni ruhlantiruvchi obraz degimiz keladi, hatto shu o'lim sahnasi ham undagi ojizlik emas, aksincha yetuklikning saqlab qolinishi, nopok, beburd jamiyatga qorishib ketishdan qutqarilish deb izohlashni istadik. Shu o'rinda Londonning katta qizi Joan asar yuzasidan aytgan quyidagi fikrlarni keltiramiz: *"In spite of its tragic ending, the book is often regarded as a "success" story ... which inspired not only a whole generation of young writers but other different fields who, without aid or encouragement, attained their objectives*

through great struggle (Roman tragedik yakun topishiga qaramay, “muvaffaqiyat” asari deya baholanadi. U nafaqat yosh qalam sohiblarini, balki har qanday soha vakilini hech qanday e’tibor-u madadsiz, o‘z maqsadlariga kuchli intilish orqali yetishishiga ilhomlantirdi)”. Chunonchi, “Martin Iden” romani dunyo tan olgan adabiyot durdonalaridan biri bo‘ldi.

Saidiyga yuzlansak, u ham Martindek ilk muhabbatini uchratgandan so‘ng oldiga aniq maqsadlar qo‘ygan, shu o‘rinda har ikki qahramon bosh maqsadlaridagi mushtaraklikni ko‘ramiz: “Saidiy ichkariga kirganida oldiga qo‘yilgan shartlarni eshitib, “bunday bo‘lsa o‘qimayman”, degan fikrga kelgan edi, ammo hozir bunday fikrga kelganidan tondi. Uning endigi fikri qanday bo‘lsa ham universitetga kirish, o‘qish edi. Vujudi mo‘jiza, har bir so‘zi, harakati hayotga chaqirib turgan shu qizga hamdard bo‘lish uchun u har narsaga tayyor edi” (Qahhor A., 1995, 6). Saidiy nima uchun universitetga kirish uchun qanchalar mashaqqat tortdi? Universitet uni Munisxonning ko‘zi tushadigan yigitlar qatoriga qo‘yishi kerak edi. Endi u nega martaba, boylilik orttirish uchun bunchalik jonini jabborga berayotir? Martaba, boylilik – uni boshqa hamma erkaklardan ajratishi, Munisxonning diqqatini jalb qiladigan o‘ringa qo‘yishi kerak edi (Qahhor A., 1995, 119); “Martin atrofini o‘rab olgan barcha buyumlarni mutlaqo unutib, haris ko‘zlarini qizga tikdi. Ha, bu qiz shu qadar ajib bir xilqat ediki, u deb yashasa, unga intilsa, uning uchun kurashsa va uning yo‘lida jon fido qilsa arziydi” (Jek London, 1968, 12)...Shu choqqacha u qandaydir iflos botqoqda yashadi, endi esa tozalanib, oliy darajaga ko‘tarilishni istardi (Jek London, 1968, 83)... Martinning miyasida porloq bir fikr paydo bo‘ldi: u yozadi. U jahonning ko‘zi, qulog‘i va qalbi bo‘lgan odamlardan biri bo‘ladi. U hamma janrda yozadi, nazm va nasr, roman va ocherk yozadi.

Shekspirga o‘xshab pyesalar ham yozadi. Yuksak martabaga erishishning asl yo‘li shu, shu bilan Rufning qalbiga ham yo‘l ochiladi (Jek London, 1968, 96)... u buyuk asarlar yozadi-yu, nomi tillarda doston bo‘ladi. Lekin bundan ham muhimi, eng muhim narsalardan ham muhimi – o‘shanda Rufga munosib bo‘ladi. Shuhrat yaxshi narsa, ammo bu orzularini u shuhrat qozonish uchun emas, Ruf uchun ardoqlardi (Jek London, 1968, 98).

Har ikki qahramon ham oshiq edi va shu oshiqlik, visol o'yi ularga shunday maqsadlarni berdi, intilishga, harakatga kuchlantirdi. Maqsadlariga erishdilar ham, ya'ni boylik, obro', hurmat ularni yuqori qatlam sohiblariga aylantirdi, ammo endi halovatidan, chinakam baxtdan ayirdi. Garchi maqsadning birligi, unga erishilganlik har ikki qahramonda o'xshash bo'lsada, o'rtada bosib o'tilgan yo'l, qahramonlar xarakteridagi o'zgarishlar, umuman asar kompozitsiyasi Qahhor va London tomonidan o'ziga xos yaratilgan. Bu albatta zamon va makon ta'sir kuchidir. Kengroq to'xtalsak, Saidiy maqsadlari tomon yo'l olarkan yo'lidan adashdi, yengillikni ko'zladi, fe'lidagi noqislik sabab bir guruh chirik odamlar muhitiga kirib qoldi: "Biroq tirishish uning uchun ilgarigi ma'nosini yo'qotdi. Endi kuni-tuni kitob o'qish, o'rganish kerak emas, faqat ulug'larning ko'ziga tez-tez ko'rinib tursa kifoya. Buni esa ko'proq shisha osonlashtiradi. O'z o'rnida bo'shatilgan ikki juft shisha unga yigirma juft kitobdan ortiqroq foyda yetkazar edi" (Jek London, 1968, 84), bu muhit o'zini domiga tortavergan sari tubanlashib, aqliy qoloqlashib bordi, oq-u qorani anglab yetganida esa kech bo'lgandi. Mana shu chigallikdan faqatgina o'lib qutulish mumkin degan xulosaga keldi. Shuning uchun ham "Sarob"ni SABOQ beruvchi, "Martin Iden"ni RUHLANTIRUVCHI (motivatsion) asar deb aytishni joiz topdik. Bundan tashqari, Abdulla Qahhor romanga nafaqat o'zi guvohi bo'lgan voqeliklar, balki tarbiyasi, oilaviy an'analari va shaxsiy qadriyatlarni ham singdirgan. Masalan, o'zbek qishlog'I hayoti, urf-odatlarini, jamiyatga bo'lgan tuyg'ularini romanda yorqin aks ettiradi. Bu uning o'z tajribasi va o'zbek madaniyatiga chuqur aloqadorligini aks ettiradi. Demak ayta olamizki, Qahhorning o'ziga xosligi uning o'zbek urf-odatlarini, manzaralarini, ijtimoiy dinamikasini puxta tasvirlashidadir. U o'zbek madaniyatini o'ziga xos qilib turuvchi noyob detallarga katta e'tibor beradi. Misol: Qahhor "Sarob"da O'zbekning an'anaviy to'y marosimi, kiyim-kechaklarini juda batafsil tasvirlab beradi. Bu o'ziga xoslik romanni boyitibgina qolmay, balki kitobxonga o'zbek an'analari haqida ma'lumot beradi: "Sahari mardonlab turib hovli yuzida tovuqday qaqag'lab yurgan korchalon xotinlar, tashqarida, tom orqasida, bog'da ivirsib yurgan erkaklar kecha bitmay qolgan ishlarini nonushta mahaligacha bitkazib, hamma yoqni mehmon qabul qilishga

tayyor qildi. Qator qurilgan uchta katta-katta tandirdan nonushta mahalida turli somsalar, yog‘lik kulchalar, patir, kunjutlik shirmon nonlar chiqib, savatlarga tushdi va ichkariga, tashqariga tashila boshlandi”; nonushta tugashi bilan ichkaridan satta xonatlas, ko‘kqarg‘a shohi ko‘ylaklar kiygan, boshlariga farang durra o‘ragan bir to‘da qishloq qizlari, juvonlar bir-birlarini quvlashib, qozon atrofida yurgan, hovuz bo‘yi va supada o‘tirganlarga qochirimlar qilib, bog‘ning o‘rtasidagi shiypon tomonga o‘tib ketishdi va hayal o‘tmay childirma darangladi (Qahhor A., 1995, 156); Murodxo‘ja domla keng oq shohi ko‘ylak kiyib, ustidan sariq ipak chilvir bog‘lagan; boshida hozirgina taxtakachdan chiqqan takdo‘zi do‘ppi, ichkaridan o‘rdak yurish qilib lapanglab chiqdi...(Qahhor A., 1995, 156). Ko‘rinadiki, Abdulla Qahhor o‘z hayotiy tajribalarini, xususan, o‘zbek merosi va madaniy kelib chiqishini adabiy asarlariga singdirib borgan. Shuningdek, asarda yosh iste’dod sohibi: Podsho “sen” degan kishini butun mamlakat “siz” deydi (Qahhor A., 1995, 84); “Esi butun odam hayron qolmaydi” (Sarob, 137); “Osmon yiroq, yer qattiq” (Qahhor A., 1995, 127); -yoshlik toshqin suv, sug‘oradigan ekinigizni sug‘orib qolmasangiz o‘tib ketadi. Keyin keksalikning ko‘zoynagini taqib igna bilan quduq qazishdan ish chiqmaydi (Qahhor A., 1995, 12); keksalikdagi huzur-halovatdan ko‘ra yoshlikda tortilgan “oh” afzalroq (Qahhor A., 1995, 169) kabi aslida hayot tajribasi nihoyatda katta odamgina aytishi mumkin bo‘lgan badiiy tasvir vositalarini o‘rni-o‘rnida qo‘llayolgan-ki, uning endigina 23-27 yoshda shunday boy asar yaratgan ulkan mahorat sohibi ekanligi isbotini topadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Jek London nafaqat “Martin Iden”da, yana ko‘plab asarlarida o‘zining boy hayotiy tajribasidan foydalanadi. Uning sarguzashtli yoshligi, izlanishlari va tiriklikda omon qolish uchun kurashlari ta’siri asarlarida benihoyadir.

Individual tamoyillarga qaramay, yozuvchilarimiz asarlarida universal mavzular va tuyg‘ular: sevgi, insoniy munosabatlar, shaxsiy o‘sis, orzularga intilish va fidoyilik, jamiyatning ijobiy, salbiy tusi kabi mavzular yetakchi. Ushbu mavzular turli millatdagi o‘quvchilar bilan rezonanslashadi va bu asarni global auditoriya uchun ochiq va qulay qiladi.

XULOSA

Umumiy xulosalasak, Martin, yozuvchi ijodkor obrazi - u muhabbat tufayli ijod qilish, qo‘liga qalam olishga ahd qilgan, yozishga bir olam boshidan o‘tkazgan sarguzashtlari, kechinmalari, qalbi to‘la ishtiyoq, muhabbati bor, ammo yoza olishlik uchun so‘z xazinasini yo‘q, demak u xazinani kitoblardan qidira boshladi. U juda ko‘p o‘qirdi, kutubxonalarda soatlab qolib ketardi...U garchi ijod namunalari qator nashriyotlar tomonidan muntazam rad etilib borsada yozishdan to‘xtamadi, yana ham ko‘proq o‘qishga, ko‘proq yozishga intilaverdi. Taqdirning o‘zi uni o‘zidek kitobsevar, chin bilim sohiblari (Brissenden, Kolduellkabi) bilan hamsuhbat bo‘lishga muyassar etdi-ki, bu uning o‘qib o‘rganganlari, hayotiy tajribalarini yanada sayqallashga zamin bo‘ldi. Natijada u ijodiy yuksalishga, buyuk ijodkor bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi. Jek London bu bilan:

- ijod yo‘lida qo‘yilgan aniq maqsad, poklik, harakat, fidoiylilik, turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish, nojo‘ya qadam tashlamaslik nasl-nasabi kim bo‘lishidan qat’iy nazar har insonni ijodiy yetuklikka, barkamollikka erishtirishini namoyish etdi;

- Saidiy ham ijodkor obraz, u ham yozuvchilik olamiga muhabbati sabab kirib keldi, avvaliga maqsadi yo‘lida ildam bordi, ko‘p o‘qidi, o‘rgandi. Unga ham taqdir ikki xil yo‘l, har yo‘lning fidoiylarini, ya’ni Ehson, Sharif, Kenja kabi asl sof insonlar hamrohligi va Salim, Abbosxon, Ilhom, Murodxo‘ja kabi insoniylik qiyofasini yo‘qotgan “zarshunos”larni ro‘baro‘ etdi. Bu tanlovda Saidiyning adashishi, buning oqibatida tubsiz jarlikka qulashi uni ijodiy tanazzulga uchratdi va Martindan butkul farqli qilib qo‘ydi.

Haqiqiy san’at asari tabiat yaratgan mo‘jizalar kabi hamisha bizning aql-idrokimiz uchun beadad sirli mohiyatga ega bo‘lib qolaveradi. Ana shu mohiyatga yetib borish uchun ijodkor yaratgan xarakterda aks etgan ideal va ana shu xarakter kechinmalari, xatti-harakatida ifodalangan ma’noni belgilash, qolaversa, asardagi obrazlarning tashqi va ichki qiyofasining go‘zallik qonuniyatlariga qay darajada mos kelishiga qarab baholash kerak bo‘ladi. Chunki haqiqiy badiiy asar alohida olinganda to‘la mustaqil va o‘zgalar tahliliga osonlikcha talqinga berilmaydigan yumuq holda bo‘ladi. (Sarimsoqov B., 2022, 86) Ayni haqiqat, Abdulla Qahhor “Sarob” romanida inson, uning asl mohiyati haqida o‘z gapini aytgan, falsafiy-

estetik qarashini tiniq ifodalab bergan. Mana shu jiddiy o‘zak “Sarob”ning umriga umr qo‘shadi, tilga, dilga tushgan asarlar-u qahramonlar bilan qiyoslash, monandlash imkonini beradi. Bir so‘z bilan “Sarob” – yozuvchi ijodining cho‘qqisi, o‘zbek adabiyotidagi tiniq “xat”i, betakror “ovoz”i, yoniq so‘zi. (Normatov U., 2008, 75) “Martin Iden” esa barchaga hazm bo‘la oladigan oddiy, shuningdek, mukammal asardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Umarova M. “Ingliz va o‘zbek adabiyotida ijodkor shaxs va qahramon”, mumtoz so‘z. 2021, 35-b.
2. Qo‘chqorova M. ““Sarob”ning matn osti sirlari”, 17.09.2020, Ziyouz.uz, 8-b.
3. Normatov U. “Badiiyat ufqlari”, T.: “Universitet” 2008, 74-b.
4. Sharafiddinov O. “Abdulla Qahhor”, T.: Yosh gvardiya, 1988, 43-44-b.;
5. Hamraqulova H. “Abdulla Qahhorning “Sarob” romanida shaxs fojiasi talqini”: Fil.fanlari nomz.diss. avtoreferati, T., 2004, 17-b.
6. Qobilova N.S. “Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm”, diss. 2018, 14-b.
7. Normatov U. “Haqiqat va Sarob. Yozuvchi P.Qodirov bilan suhbat”, T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007, 100-bet.
8. Jo‘rayeva F.Y. Tipologik obrazlarning qiyosiy tahlili. Nom. Diss. Toshkent, 2000, 93-bet.
9. Sarimsoqov B. to‘plovchi Axmedov H. “Badiiylik asoslari va mezonlari”, T.: Bookmany print, 2022, 86-bet
10. Karimova M. Adabiyotshunoslikda obraz va uning yaratilish mahorati tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarning tahlili. 2025. Nordic_Press, 7(0007).
11. Karimova M. Adabiyotshunoslikda obraz tushunchasi va tahlili. 2024. Nordic_Press, 3(0003).
12. Каримов У. Poetics in Neal Stephenson’s Novels. 2024. Лингвоспектр, 3(1), 273-283.

13. Каримов У., & Каримова, М. Автобиографичность персонажей Джека Лондона (особенно «Мартина Идена»). 2023. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 1(3), 40-44.
14. <https://www.hohschools.org/cms/lib/NY01913703/Centricity/Domain/378/Characterization%20upload>
15. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konsepsiya> ↑OʻzME. Birinchijild. Toshkent, 2000-yil
16. Qahhor A. Sarob. – T.: Sharq, 1995.
17. Jek London. Martin Iden. – T.: Gʻafur Gʻulom, 1968.

REFERENCES

1. Umarova M. (2021). *“Creative Person and Hero in English and Uzbek Literature”*, classic word p. 35
2. Kuchkarova M. (2008). *“Secrets of the Text of “Sarob”*, 17.09.2020, Ziyouz.uz p. 8
3. U. Normatov: *“Horizons of Art”*, Tashkent, “Universitet”. p. 74
4. Sharafiddinov O. (1988). *“Abdulla Qahhor”*, T.: Young Guard, p. 43-44;
5. Hamrakulova H. (2004). *“Interpretation of the Tragedy of the Personality in Abdulla Qahhor’s Novel “Sarob”*”: Abstract of the Candidate of Philological Sciences Dissertation, T., p. 17.
6. Qabilova N. S. (2018). *“Artistic psychologism in the works of Jack London and Abdulla Qahhor”*, diss. p. 14
7. Normatov U. (2007). *“Truth and Mirage. Conversation with the writer P. Kadyrov”*, T.: National Library of Uzbekistan named after A. Navoi, p. 100.
8. Juraeva F.Y. (2000). *Comparative analysis of typological images*. Nom. Diss. Tashkent, p. 93.
9. Sarimsakov B. (2022). compiler Akhmedov H. *“Fundamentals and criteria of art”*, T.: Bookmany print, p. 86
10. Karimova M. (2025). *Analysis of works devoted to the study of the image and the skill of its creation in literary studies*. Nordic Press, 7(0007).

11. Karimova M. (2024). *The concept and analysis of the image in literary studies*. Nordic_Press, 3(0003).
12. Karimov U. (2024). *Poetics in Neal Stephenson's Novels*. Lingvospektr, 3(1), 273-283.
13. Karimov U., & Karimova, M. (2023). *Autobiographical nature of Jack London's characters (especially "Martin Eden")*. Foreign Linguistics and Lingvodidactics, 1(3), 40-44.
14. <https://www.hohschools.org/cms/lib/NY01913703/Centricity/Domain/378/Characterization%20upload>
15. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konsepsiya> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
16. Qahhor A. (1995). *Mirage*. Sharq.
17. Jack London. (1968). *Martin Eden*. Gafur Gulyam.